

BOSHLANG'ICH SINLAR TA'LIMI BO'YICHA UMUMIY MA'LUMOT

Aliboyeva Shahnoza Xolmamatovna

Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani

65-sonli umumta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Jumayeva Nargiza

Surhondaryo viloyati Qumqo`rg`on tumanidagi 65-sonli

umumta'lim maktabining boshlang`ich sinf o`qituvchisi

tel raqam; 91 901 20 83

Annotatsiya: Ushbu maolada boshlang'ich ta'lism, uning ahamiyati, o'quvchi bolalar hayotida boshlang'ich ta'limning o'rni haqida ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lism, ona tili, o'qish , arifmetika

KIRISH

Boshlang'ich ta'lism har bir bolaning tarbiyasida va kelajagida muhim rol o'ynaydi. Uyning poydevorini qanchalar mustahkam qilsangiz , u shunchalar mustahkam va ko'p yillar sizga xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, qachonki, bolaning boshlang'ich ya'ni poydevor bilimlari yaxshi , mustahkam bo'lsa , kelajagi ham shunchalar yaxshi bo'ladi. O'zbekiston respublikasida 11 yillik majburiy maktab ta'limi shakli bo'lib , 4 yili boshlang'ich ta'lism hisoblanadi. Boshlang'ich maktab ta'limi 7 yoshdagi bolalarni 1-sinfga qabul qilish bilan boshlanib, 11 yoshli o'quvchilarni yuqori sinfga o'tish uchun imtihon qilish bilan yakunlanadi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston respublikasida ta'lism , tarbiya, bilim olishga yurtbosimiz tomonidan juda katta e'tiborlar qaratilinmoqda. Bolalar ilk ta'limni ham , shu bilan birgalikda, tarbiyani ham boshlang'ich sinflarda, ilk bor qo'lga qalam tutishni o'rgatgan ustozidan o'rganishadi. Buyuk bobokalonimiz Abdulla Avloniy aytganlaridek : "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo halokat , yo saodat masalasidir" . Ilk tarbiya esa boshlang'ich sinfdan boshlanadi, ya'ni o'quvchilar ota-onaga hurmatni, o'z tengqurlariga muomalani, ustozlarga bo'lgan hurmatni, bilimga bo'lgan mehni va jamoat joylarida o'zini tutishni o'rganadi.

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lism to'g'risida" gi qonunida boshlang'ich ta'lism umumiyligi o'rta ta'lism olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan. 2000-2001-o'quv yillarida O'zbekistonda 207 ta boshlang'ich maktab bo'lib, ularda 30684 nafar o'quvchilar ta'lism ola boshlashdi. Boshlang'ich ta'lism sinflari uchun o'quv rejasi va dasturlari mavjud. Boshlang'ich ta'limda o'quv rejasi asosida: ona tili, matematika, o'qish, tabiatshunoslik, rus tili, tasviriy san'at , jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ona tili darsida: xatsavod o'rgatiladi, nutqni o'stirish , o'qish va yozishga o'rgatish yuzasidan maxsus mashg'ulotlar

o'tkaziladi, dastur asosida imlo qoidalari va ba'zi grammatik vositalar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar beriladi. Ona tili – nutq, o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o`quvchilar o`quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko`nikmalarini egallash bilan bиринчи navbatda, o`z ona tilini o`ргanishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni o`qitish vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o`ргaniladi. Demak, ona tili bolaning umumiyl kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg`otishda ham alohida rol o`ynaydi. Ona tili o`qitish metodikasi – pedagogik va amaliy fan. Chunki u nazariyaga asoslanib o`quvchilarni o`qitish, tarbiyalash, o`stirishning amaliy vazifalarini bajaradi.

Ona tili o`qitish metodikasi fani ta'lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o`qish va yozishni, fonetika, grammatika bilib olish jarayoni hisoblanadi. Ona tilidan ko`nikma va malakalarni shakllantirish, til xaqidagi fanning ilmiy tushunchalar sistemasini o`zlashtirish qonuniyatlarni o`ргanadi, til o`ргanishning eng qulay metod va usullarini izlaydi. Matematika darslarida esa 4 arifmetik amal ichida hisoblash (qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish) o`rgatiladi, algebra va geometriyaga oid ilk tushunchalar bilan tanishtiriladi. Boshlang'ich ta'limda maktab dasturida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni o`ргatish hamda hosil qilishga erishish uchun ta'limning turli usullari, shakllari hamda vositalaridan foydalanish asosida ish olib borish talab qilinadi.

XULOSA VA MUNOZARA

O'zbekiston Respublikasida 11 yillik ta'lim majburiy va bepul bo'lib, boshlang'ich maktabda 4 yildan boshlab, o'rta ta'limning 2 bosqichi mos ravishda 5 va 2 yil davom etadi. Boshlang'ich maktablar, bolalarning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolga yetganligiga qarab, 6 va 7 yoshdan boshlanadi hamda 4 yil davom etadi. 4 yillik ta'limni tugatgandan so'ng o'rta ta'limga o'tish uchun maxsus imtihonlar topshiriladi. Boshlang'ich ta'lim bu -barcha bilimlarning: so'zlashish odobini, o'qish va yozishni, ilk arifmetik hisob-kitoblarning boshlanish nuqtasi, poydevori hisoblaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. www.wikipedia.uz
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, "Boshlang'ich ta'lim", Toshkent 2000-2005-yillar;